

**O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA
MAKROIQTISODIY DASTURLARNI ISHLAB CHIQUISH VA AMALGA
OSHIRUVCHI YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH**

Naimova Nargiza Akbarovna

Osiyo xalqaro universiteti

Bobojonova Madina Jumaniyoz qizi

Osiyo xalqaro universiteti

Annotatsiya: *Harakatlar strategiyasiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan saylovoldi jarayoni, jamoatchilik, ishbilarmon doiralar vakillari hamda davlat organlari bilan uchrashuvlar chog‘ida bildirilgan mamlakatni ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, madaniy-gumanitar rivojlantirishning konseptual masalalari kiritildi.*

O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyotining bugungi bosqichida makroiqtisodiy kompleksda o‘z yechimini kutayotgan qator muammolar mavjudki, Harakatlar strategiyasida ushbu muammolarni bartaraf etish ko‘zda tutilgan.

Kalit so'zlar: *Harakatlar strategiyasi, tovar bozorlari, tashqi bozorlar, eksport salohiyati, Jahon iqtisodiyotining globallasuvi, iqtisodiy o‘sish, milliy iqtisodiyot, zamonaviy texnologiya, boshqaruv mexanizmi.*

Global tovar bozorlaridagi noaniqlik va beqaror vaziyatni, ko‘plab yirik mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish sur‘atlari pasaygani hamda boshqa jiddiy tahdidlarni e‘tiborga olib, Davlat o‘z iqtisodiy siyosatini qanday murakkab sharoitlarda amalga oshirishi kerakligini yaxshi anglaydi.

Shuning uchun makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash bo‘yicha o‘zini oqlagan chora-tadbirlar va mexanizmlardan foydalanish masalalari ustuvor vazifa sifatida saqlanib qoladi.

Umuman olganda, mustaqillik yillarida mamlakatda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati qurishga, erkin bozor munosabatlariga va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishga, xalq osoyishta va farovon hayot kechirishi uchun shart- sharoitlar yaratishga, xalqaro maydonda O‘zbekistonning munosib o‘rin egallashiga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Bosib o‘tilgan yo‘l va orttirilgan tajribani xolisona baholashdan, mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlarni tahlil qilishdan hamda zamon talablaridan kelib chiqqan holda, iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakat taraqqiyotini jadallashtirishning muhim ustuvorliklarini hamda aniq marralarini belgilash vazifalarini amalga oshirish yo‘lida 2017 yil 7 fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi.

Bunday muammolarga milliy valyuta va ichki baholarning barqarorligi, valyuta kursining mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligiga

salbiy ta'sir etishi, tadbirkorlik sub'ektlarining o'z ixtiyoridagi xorij valyutadan erkin foydalana olmayotgani, naqd va naqd pulsiz to'lovlarda farqning mavjudligi, tijorat banklarining barqarorligi va moliyaviy holatini mustahkamlash, aholining banklarga bo'lgan ishonchini oshirish kabilar iqtisodiy rivojlanishga jiddiy to'sqinlik qilmoqda.

Harakatlar strategiyasining "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish" deb nomlangan uchinchi yo'nalishda bu borada qator chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun milliy valyuta va narxlarning barqarorligini ta'minlash, valyutani tartibga solishning zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, mahalliy budjetlarning daromad bazasini kengaytirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, eksportga mo'ljallangan mahsulot va materiallar ishlab chiqarish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, transport-logistika infratuzilmasini, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda xorijiy investorlar uchun investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, soliq ma'murchiligini yaxshilash, bank faoliyatini tartibga solishning zamonaviy prinsiplari va mexanizmlarini joriy etish nazarda tutilmoqda.

2018-2023 yillarda umumiy qiymati 40 milliard AQSh dollari miqdoridagi 649 ta investitsiya loyihasini nazarda tutuvchi tarmoq dasturlarini ro'yobga chiqarish rejalashtirilmoqda. Natijada keyingi 5 yilda sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 1,5 baravar, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 33,6 foizdan 36 foizgacha, qayta ishlash tarmog'i ulushi 80 foizdan 85 foizgacha oshadi. O'tgan mustaqil taraqqiyot davrida iqtisodiyotda ma'muriybuyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimidan mutlaqo voz kechilib, bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgani va pul-kredit siyosati puxta o'ylab olib borilgani makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori sur'atlar bilan o'sishini, inflyasiyani prognoz ko'rsatkichlari darajasida saqlab qolishni ta'minladi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qildi.

Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur taxdili, bugungi kunda jahon bozori kon'yunkturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda.

Shularni e'tiborga olib, Harakatlar strategiyasining uchinchi yo'nalishida makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolishning quyidagi vazifalari belgilab olindi:

makroiqtisodiy mutanosiblikni saqlash, qabul qilingan o'rta muddatli dasturlar asosida tarkibiy va institutsional o'zgarishlarni chuqurlashtirish hisobidan yalpi ichki mahsulotning barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash; xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganini saqlab qolgan holda, davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish; soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish; ilg'or xalqaro tajribada qo'llaniladigan instrumentlardan foydalangan

holda, pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, shuningdek, valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash; bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta'minlash, banklarning kapitallashtirish darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlashni yanada kengaytirish; sug'urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobidan kengaytirish, shuningdek, kapitalni jalb qilish hamda korxona, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirish;

xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, etakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o'ylangan tashqi qarzlar siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish.

Iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida makroiqtisodiy ko'rsatkichlar hamda valyuta bozori holati ustidan tizimli monitoringni amalga oshirish, zaruriyat tug'ilganda, milliy valyuta va ichki bozordagi narxlarning barqarorligini oshirish, makroiqtisodiy muvozanatni saqlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashga yo'naltirilgan qonunchilikni takomillashtirish bugungi kunning muhim masalalaridan hisoblanadi.

Ushbu masalalarni amalga oshirish asnosida Harakatlar strategiyasida tahliliy ma'lumotnomalarni tayyorlash, unda iqtisodiyotning yuqori o'sish sur'atlarini, shuningdek, milliy valyuta va narxlar darajasining barqarorligini ta'minlash nazarda tutilgan. Iqtisodiyotning rivojlanishi ko'p jihatdan milliy valyutaning va ichki bozordagi narxlarning barqarorligiga bog'liqdir. Buning uchun tovar va xizmatlarning iste'mol narxlari (tariflari) o'zgarishini kuzatish metodikasini takomillashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, Markaziy bank tomonidan belgilanadigan qayta moliyalash stavkasi moliya bozorini tartibga solishning asosiy ko'rsatkichidir. Shu borada, ya'ni moliya bozorlarini va tijorat banklarining investitsiyaviy imkoniyatlarini barqarorlashtirish uchun Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkalarini belgilash tizimini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Shuning uchun ham Harakatlar strategiyasida ushbu sohani yanada rivojlantirish va Markaziy bankning asosiy regulyatori bo'lmish qayta moliyalash stavkasini o'rnatishning xalqaro metodikasidan kelib chiqib, shuningdek, iqtisodiyotning ochiqqligi va moliya bozorlarining rivojlanganlik darajasini hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasini ishlab chiqish belgilangan.

O'tgan yillarda amalga oshirilgan bank-moliya sohalaridagi tizimli tadbirlar natijasida, ya'ni 2022 yil davomida o'tkazilgan sterilizatsiya operatsiyalarining o'rtacha hajmi oldingi yilga nisbatan 1,3 martaga oshdi. Bu esa bank tizimidagi likvidlikni samarali boshqarishga, pul massasining prognoz ko'rsatkichlaridan ortiqcha o'sishining oldini olishga va shu orqali ichki bozorda narxlar barqarorligini ta'minlashga xizmat qildi.

Ayni damda, tovar va xizmatlarni xarid qilishda nakd pulsiz, naqd pul ko'rinishidagi

hisobkitoblarni amalga oshirish amaliyoti keng tarqalgan. Ammo ne'matlarni nakd pulsiz ko'rinishda ayriboshlash amalga oshirilganda sotuvchilar tomonidan sun'iy ravishda narxlarning oshirib ko'rsatish holatlari yuzaga kelmokda. Mazkur holat ikki xil ko'rinishdagi to'lovlar o'rtasidagi tafovutning bir-biridan keskin farqlanishiga va natijada iste'molchilarning haqli noroziligiga sabab bo'lmoqda. Bu esa, o'z navbatida, narxlarning bozor qonunlariga zid bo'lgan holatda o'sishiga olib kelmoqda.

“Makroiqtisodiyot” umumiy iqtisodiy nazariyaning ikki muhim bo'limidan biri bo'lib, iqtisodiyotni bir butun holda o'rganadi va ishsizlik, inflatsiya, iqtisodiy o'sish, to'lov balansi barqarorligi, davlat budjeti, davlat qarzi kabi hozirgi zamon iqtisodining barcha muhim muammolarini tadqiq qiladi.

Iqtisodchi olimlar tomonidan makroiqtisodiy tahlil elementlari XVIII asrdanoq qo'llanila boshlagan bo'lsada makroiqtisodiyot XX asrning o'rtalariga kelib mustaqil shakllanib bo'ldi va uning asoschisideb J.M. Keyns tan olinadi.

Makroiqtisodiy tahlilning o'ziga xos xususiyati unda agregat ko'rsatkichlardan foydalanishda namoyon bo'ladi.

Uy xo'jaliklari, firmalar, davlat va tashqi dunyo makroiqtisodiyot sub'ektlarini tashkil etadi.

Makroiqtisodiy tahlilda matematik formula, grafik va chizmalar ko'rinishidagi makroiqtisodiy modellardan foydalaniladi. Iqtisodiyotdagi barcha muammolarni o'rganish imkonini beradigan yagona model mavjud emas. Shuning uchun ham makroiqtisodiy tadqiqotlarda o'zaro bir birini to'ldiradigan ko'pgina modellardan foydalaniladi.

Davlatning iqtisodiy tizimning barqarorligini va iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasidagi hatti-harakatlari iqtisodiy siyosat deb ataladi.

“Resurslar - tovarlar va daromadlar” hamda “daromadlar – xarajatlar”ning doiraviy oqimi sxemasi soddalashtirilgan makroiqtisodiy model bo'lib makroiqtisodiyot sub'ektlarining o'zaro munosabatlarini va makroiqtisodiy jarayonlarning kechishini shartli tarzda aks ettiradi. Iste'mol - jamiyat iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida ishlab chiqarish natijalaridan va ishlab chiqarish omillari (ishchi kuchi)dan foydalanish jarayonidir.

Milliy iqtisodiyotda yangidan vujudga keltirilgan qiymat, ya'ni milliy daromad iste'mol va jamg'arma maqsadlarida sarflanadi. Buni keng ma'noda talqin qiladigan bo'sak, iste'mol jamiyat iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish jarayonida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlardan foydalanishni anglatib, unumli va shaxsiy istemolga ajraladi. Zamonaviy jahon xo'jaligi vujudga kelmasdan oldin ham xalqaro iqtisodiy munosabatlar (asosan savdo ko'rinishda) mavjud bo'lib, bunda asosiy e'tibor iste'mol tavarlariga qaratigan. Iste'mol va jamg'arma hajmi hamda unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rtasidagi bo'g'liqlik iste'mol va jamg'arma funksiyasi deyiladi. Bu funktsiyani bayon etishda klassik iqtisodchilar va keynschilarning nuqtai nazarlari farqlanadi. kishilar o'z mablag'larini qo'shimcha daromad keltirgan taqdirdajamg'armagayo'naltirishga harakat qiladilar. Shunga ko'ra, banklarning real foiz stavkasi qanchalik yuqori bo'lsa, ularning jamg'armaga qiziqishlari shu qadar kuchli bo'ladi, ya'ni jamg'arma real foiz stavkasining

o'sib boruvchi funksiyasi hisoblanadi. Aholi daromadlari iste'mol va jamg'arma mablag'larining yig'indisidan iborat ekan, real foiz stavkasining o'sishi bilan iste'mol kamayib, pasayishi bilan esa ko'payib boradi. Boshqacha aytganda, klassik iqtisodchilar fikriga ko'ra iste'mol real foiz stavkasining pasayib boruvchi funksiyasi hisoblanadi.

Iqtisodchilarning bu fikriga qarshi chiqib, uy xo'jaliklarining iste'mol sarflari real foiz stavkasiga u qadar bog'liq [emasligini](#), kishilar uchun hamma vaqt joriy iste'molning kelgusidagi iste'moldan afzalligini takidlaydi. U iste'mol sarflari darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omil sifatida uy xo'jaliklarining joriy daromadlarini ko'rsatadi. Iste'molchilarning daromadlari qanchalik o'sib borgan sari ularning jamg'arishga bo'lgan moyilliklari shunchalik oshib boradi. Aholi daromadlarini shakllantirishda "iste'mol savatchasi" muhim ahamiyat kasb etadi.

"Iste'mol savatchasi" - bu aholi fiziologik qobiliyatini tiklash uchun zarur bo'lgan eng muhim iste'mol tovarlar me'yorining ma'lum davrdagi qiymatidir. Har bir mamlakatda "iste'mol savatchasi" tarkibi tub aholining demografik, milliy, tarixiy va boshqa xususiyatlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Hozirgi paytga kelib, O'zbekiston "iste'mol savatchasi"ga eng muhim 19 xil oziq-ovqat mahsulotlari kiritilgan. Iste'mol savatchasini o'rganishning iqtisodiy ahamiyati shundan iboratki, uning qiymatidagi o'zgarishlarga qarab, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj tabaqalarining daromad miqdorlari oshiriladi yoki ma'lum darajada (masalan, 50-70 %) indeksatsiya qilinadi. Iste'mol savatchasidan kelib chiqib, aholining ijtimoiy zaif qatlamlari asosiy daromadlari indeksatsiya qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Akbarovna, N. N. (2024). GLOBALLASHUV SHAROITIDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISHDAGI MUAMMOLAR. *Gospodarka i Innovacje.*, 54, 107-112.
2. Bobojonova, M. J., & Naimova, N. (2024). QISHLOQ XO'JALIGINI KLASSTERLASHNING XORIJIY TAJRIBASI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 65-71.
3. Bobojonova, M. J., & Naimova, N. A. (2024). O'ZBEKISTONDA FRILANSERLIK VA AUTSORSERLIKNING RIVOJLANISH DARAJASI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 72-77.
4. Bobojonova, M. J., & Naimova, N. A. (2024). AHOLINING O'ZINI OZI BANDLIGINI TA'MINLASHDA AUTSORSING YANGI SHAKLINI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 59-64.
5. Akbarovna, N. N. (2024). DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARI-MA'MURIY HUQUQ OBYEKTI SIFATIDA. *Gospodarka i Innovacje.*, 47, 371-377.
6. Akbarovna, N. N. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOT SOHALARDA VA ELEKTRON TIJORAT RIVOJLANISHIDA MAMLAKATNING IQTISODIY SALOHIYATI.

7. Akbarovna, N. N. (2024). DAVLAT SOLIQ QO 'MITASINING AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI RAQAMLASHTIRISH STRATEGIYASI.

8. Naimova, N. (2024). STRATEGY OF MARKETING RESEARCH. *Modern Science and Research*, 3(5), 306-312.

9. Nargiza, N. (2023). THE ROLE OF PROPERTY RELATIONS IN SOCIETY. *Modern Science and Research*, 2(12), 889-893.

10. Akbarovna, N. N. (2024). Oliy Ta'lim Muassasalarining Innovatsion Faoliyat Natijalarini Tijoratlashtirish Muammolari Va Ularni Hal Etish Yo 'Llari. *Miasto Przyszłości*, 54, 857-866.

11. Akbarovna, N. N. (2023). MULKCHILIK MUNOSABATLARINING JAMIYATDAGI TUTGAN O'RNI.

12. Naimova, N. (2024). THE COUNTRY'S ECONOMIC POTENTIAL IN DIGITAL ECONOMY AND E-COMMERCE DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 234-239.

13. Akbarovna, N. N. (2023). BULUTLI HISOBLASH TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIYOTDA TURGAN ORNI. *Gospodarka i Innowacje*, 42, 517-520.

14. Akbarovna, N. N. (2024). KORXONADA MEHNAT FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING MOHIYATI VA ASOSLARI. *Gospodarka i Innowacje*, 49, 133-141.

15. Akbarovna, N. N. (2024). MAMLAKAT IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TURIZIMNING O'RNI NAZARIY USLUBIY ASOSLARI. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 63-70.

16. qizi Bobojonova, M. J. (2023). AGROTURIZMNING IQTISODIYOTDA O 'RNI, SALOHIYATI VA INFRATUZILMASINI YAXSHILASH. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(8), 48-52.

17. Jumayeva, Z. B., & Bobojonova, M. J. (2024). TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING KONSEPTUAL ASOSLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 93-99.

18. Jumayeva, Z. B., & Bobojonova, M. J. (2024). KORXONALARNING BOZORDAGI FAOLLIGINI BAHOLASHDA ANSOFF MATRISASINI QO'LLASH: AFZALLIKLARI VA USTUNLIKLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 100-106.

19. Jumayeva, Z. B., & Bobojonova, M. J. (2024). TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING KONSEPTUAL ASOSLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 93-99.

20. Otkirovich, N. S. (2024). Yashil Iqtisodiyotda Raqamli Transformatsiya. *Miasto Przyszłości*, 54, 1356-1364.

21. Solijonov, S., To'Rayev, T., Bobojonova, M., Tojimatova, S., & Xoldorova, X. (2022). ISSIQXONA SHAROITIDA BODRING NAVLARINI O 'SISH RIVOJLANISH VA HOSILDORLIGIGA EKISH MUDDATLARINI TA'SIRI. *Science and innovation*, 1(D7), 251-254.

22. Solijonov, S., Bobojonova, M., Xoldorova, X., To'Raev, T., & Tojimatova, S. (2022). ЛАЛМИКОР ДЕҲҚОНЧИЛИКДА БЕДА “АРИДНАЯ” НАВИНИНГ УРУҒЧИЛИГИ. *Science and innovation*, 1(D7), 255-258.

23. Solijonov, S., To'rayev, T., Bobojonova, M., & Xoldorova, S. T. X. (2022). THE EFFECT OF PLANTING TIME ON GROWTH DEVELOPMENT AND PRODUCTIVITY OF CUCUMBER VARIETIES IN GREENHOUSE CONDITIONS. *Science and Innovation*, 1(7), 251-254.

24. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). KORXONADA ISH HAQI TO'LASH TIZIMLARI VA SHAKLLARI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(2), 279-285.

25. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). STAGES OF BUSINESS VALUATION. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(2), 167-175.

26. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANKLARIDA XMHSNI TADBIQ ETISH XUSUSIYATLARI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 253-258.

27. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). OZINI OZI BANDLIGINI TAMINLASHNING ILGOR XORIJIY TAJRIBASI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(2), 176-181.

28. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). MONOPOLIYA VA ANTIMONOPOL SIYOSAT. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 464-468.

29. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). AHOLINING OZINI OZI BANDLIGINI TAMINLASHNING MAZMUN-MOHİYATI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(2), 162-166.

30. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). ENTERPRISE MARKETING STRATEGY. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 259-265.

31. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). TASHKILOTNING INNOVATSION FAOLIYATI SAMARALIGINI BAHOLASH. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(2), 286-294.

32. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). RAQOBAT TUSHUNCHASI, UNING TURLARI VA USULLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 459-463.

33. Qudratova, G. M. (2024). METHODOLOGY OF ANALYSIS OF COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN BUKHARA REGION. *International journal of artificial intelligence*, 4(10), 341-345